

**Ўзбекистан Республикасы Илимлар Академияси
Қарақалпақстан бөлимининң**

ХАБАРШЫСЫ

Журнал 1960-жылдан баслап шығып атыр

**Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси
Қорақалпоғистон бўлимининг**

АХБОРОТНОМАСИ

Журнал 1960 йилдан нашр қилинмоқда

ВЕСТНИК

**Каракалпакского отделения
Академии наук Республики Узбекистан
Журнал издается с 1960 года**

**№ 3
(276)**

Нукус - «Илим» - 2024

ции и обустройства.....	81
Нуржанов С.У., Қудияров А. – Қарақалпақстан прокуратурасы хызметкерлериниң репрессияға ушыраўы	84
Сапарниязов А., Опаев Б. – Водворение уральских казаков в каракалпакские степи и их приспособление к новым условиям	88
Курбанова З.И. – Эволюция гендерных ролей каракалпачек (по материалам этнографической экспедиции в апреле-мае 2024 года).....	92
Наўрызбаева Н. – Хорасан мүйиз нағысының келип шығыўы ҳәм семантикасы.....	95
Таджетова С. – Развитие этнических и межэтнических браков в Каракалпакстане в советский и постсоветский период	98
Ashursky E.E. – Developing the bright humanistic ideals of Epicurus, Fyodorov and Dostoevsky .	102

Филология

Bekimbetov A.M. – Qaraqalpaq xalqınıń diniy ápsanaları (2-maqala).....	108
Мақсетова Ф. А. – Қарақалпақ лиро-эпикалық дәстанларының типологиясы	111
Қутлымуратов Б.Х. – Дәстаннан драмаға өтиў стилизациясы («Алпамыс» дәстанынан «Алпамыс» драмасына қарай...)	115
Абдимуратов А. – Особенности композиции и стиля публицистики писателя	118
Утамбетова А.Ж. – Гүрриңлерде турмыс шынлығын сәўлелендириўде сюжет шеберлиги (Я.Әжимов дәретіўшилиги мысалында).....	121
Тлеуниязова Г.Б. – Қарақалпақ лирикасында шығарма композициясын қурыўдағы умтылыслар.....	126
Нуржанов П., Турдыбаева А. – Қарақалпақ романында Әжинияз образы (әдебий сынлық ҳәм илимий дереклерге талқы).....	129
Sarsenbaeva A.K. – Házirgi qaraqalpaq lirikasında fârd hám másneviy janrı (Türkmenbay Jiyemyratov lirikası misalında)	133
Seydullaeva D., Dauletmeratova H. – T.Qayıpbergenovtıń shıǵarmalarında qollanılǵan sintetikalıq baǵınıńqılı qospa gápler.....	137
Оразимбетов А.К. – Qaraqalpaq tilindegi affikslerdiń poziciyalıq túrleri (interfiks hám infiksler).....	140
Ходжалепесова И.М. – Изучение символики цвета как уникального языкового средства в описании антропоцентрических характеристик	143
Tashmatova N.Ch. – Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul-asror» mashaviysida antonim leksemalar ifodasi	147

Юбилей

Бекбергенова З.У. – Пидайы илимпаз, талантлы жазыўшы Сарыгул Баҳадырова 80 жаста....	151
--	-----

Antropotsentrik xususiyatlarni tavsiflashda rang ramziyligini noyob til vositasi sifatida o'rganish
Xodjalepesova I. M.

ORIENTAL universiteti, Toshkent

Maqolada insonni xarakterlash va uning tashqi ko'rinishi, yoshi, fe'l-atvori, ichki holati va shaxslararomuno sabatlari tavsifi bilan bog'liq ma'lumotlarni uz atish uchun ishlatiladigan turli xilranglarni va barqarori borlarni bildiruvchi leksemalar o'rganiladi. Muallif turli rangdagi belgilarni o'z ichiga olganingliz, o'zbek va qoraqalpoq iboralarga misollar keltiradi va ularni antropotsentrik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Atrofdagi voqelikning inson va ob'ekt-hodisalarini tasvirlashdagi rang ramziyligi turli til madaniyatlarida o'xshashlik va farqlarga ega va bu xalqlar va ona tillarining axdoqiy-diniy, etnospesifik, ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishi bilan bog'liq. O'rganilayotgan tillarning har biri o'ziga xos ma'no, ramziylik va foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ushbu o'ziga xoslik, ayniqsa, odamning tavsifi, uning yoshi, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy holati, kasbiy bandligi, shaxsiy xususiyatlari va psixologik holatlarida aniq namoyon bo'ladi. Ranglareng rang-barang va ifodali tarzda yorqin va betakror tasvirlarni yaratadi, ba'zan metaforik va giperbolik bo'lib, antropotsentrik xususiyatlarni tavsiflashda "ta'kidlash" va "nuqtaga urish"ni keltirib chiqaradi.

Изучение символики цвета как уникального языкового средства в описании антропоцентрических характеристик

Ходжалепесова И.М.

Университет ORIENTAL, Ташкент

В статье исследуются лексемы, обозначающие различные цвета и входящие в состав устойчивых выражений, используемых для характеристики человека и передачи информации, связанной с описанием его внешности, возраста, характера, внутреннего состояния и межличностных отношений. Автор приводит примеры английских, узбекских и каракалпакских выражений, содержащих обозначения разных цветов и анализирует их с антропоцентрической точки зрения. Символика цвета в описании человека и объектов-явлений окружающей действительности имеет как сходства, так и различия в разных языковых культурах и связано это с морально-религиозным, этноспецифическим, общественно-историческим фоном народов и носителей языков. Каждый из исследуемых языков обладает своеобразным значением, символикой и спецификой употребления. Эта специфика особенно явно проявляется в описании человека, его возраста, внешности, социального статуса, профессиональной занятости, личностных характеристик и психологических состояний. Цвета наиболее красочно и экспрессивно создают яркие и неповторимые образы, порой метафорические и гиперболические, вносящие "изюминку" и "попадающие в точку" в описании антропоцентрических характеристик.

The study of the symbolism of color as a unique linguistic means in the description of anthropocentric characteristics

Khodjalepesova I.M.

University ORIENTAL, Tashkent

The article investigates lexemes, which nominate different colours and compose set expressions used to characterize a person and transfer information dealing with description of his/her appearance, age, character, inner state and interpersonal attitude. The author presents English, Uzbek and Karakalpak expressions with various colours and analyzes them from anthropocentric point of view. The symbolism of color in the description of a person and objects-phenomena of the surrounding reality has both similarities and differences in different linguistic cultures and this is due to the moral and religious, ethnospecific, socio-historical background of peoples and native speakers. Each of the studied languages has a peculiar meaning, symbolism and specifics of use. This specificity is especially evident in the description of a person, his age, appearance, social status, professional employment, personal characteristics and psychological conditions. Colors most colorfully and expressively create vivid and unique images, sometimes metaphorical and hyperbolic, bringing a "highlight" and "hitting the mark" in the description of anthropocentric characteristics.

HAYDAR XORAZMIYNING "GULSHAN UL-ASROR" MASNAVIYSIDA ANTONIM LEKSEMALAR IFODASI

Tashmatova N.Ch.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tildagi mavjud har bir so'z hayot talabiga muvofiq tarzda turli yo'llar bilan yuzaga keladi. Binobarin, leksemalarni diaxron jihatdan o'rganish tilning rivojlanish bosqichlari, uni yaratuvchi xalq tarixini yoritishda alohida e'tiborga molik. Shu bois ham tarixiy jarayonlar so'z ma'nolarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Odatda, fan va texnikaning takomillashuvi natijasida paydo bo'lgan istilohlarning muayyan qismi so'zlarni yangi ma'noda qo'llash yordamida hosil qilingan. Kezi kelganda aytish joizki, so'z ma'nosi istemol doirasining kengayishi, ma'no ottentkasidagi o'zgarishlar ham til taraqqiyotida o'ziga xos mavqeni egallaydi.

So'z ma'nosining rivojlanish qonunlarini tek-

shirish, so'zning omonimlik, sinonimlik, paronimlik, antonimlik va ko'pma'nonilik xususiyatlarini o'rganish tilning lug'at boyligini aniqlashga, turli lug'atlar tuzishga katta yordam beradi [2]. Tilning ifoda rejasida bir-biriga qarama-qarshi holatlarni, miqdoriy o'lishamlardagi ziddiyatlarni ko'rish mumkin. Masalan, frazeologizmlar va sinonimiyada ifoda birliklari mazmun birliklaridan ko'p bo'lsa, polisemiya va omonimiyada buning aksini ko'ramiz. Bunda shaklan bir xillikka ega bo'lgan lug'aviy birliklar ikki va undan ortiq ma'no bilan ish ko'radi. Ikki va undan ortiq ma'no bir shaklga to'g'ri kelishi hollarini matn bartaraf etadi [3, 18]. Shu ma'noda, leksik-semantik jarayonlar (polisemiya, omonimiya, sinonimiya,

antonimiya) umumadabiy tildagi kabi biz tadqiq qilayotgan “Gulshan ul-asror” [1] asarida qoʻllanilgan leksik birliklar tizimida ham roʻy bergan. Quyida ushbu hodisalarning biri xususida alohida fikr yuritamiz.

Maʼno jihatidan bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan soʻzlar antonimlar deb yuritiladi [7, 118; 8, 16]. Antonimlik soʻzlardagi maʼno ziddigini aks ettiradigan tushuncha boʻlgani uchun u bir soʻz orqali yoki koʻp soʻz yordamida beriladimi bundan qatʼi nazar, baribir, antonym deb qaralishi kerak [6, 35]. Shu bilan birga, antonym ekanligini aniqlashda mantiqiy markaz printsipidan – faraz qilingan nuqta yoki ikki antonim soʻz bildirgan tushunchalar oʻrtasidagi oraliq tushunchalardan foydalanish lozim [4, 9]. Antonimlar, bir tomondan, soʻzlarning asl maʼnosini ochib bersa, ikkinchidan, ularning koʻp maʼnoda ishlatilishini aniqlashga koʻmaklashadi. Zid maʼnoli leksemalar nutqda predmet, hodisa va ularning belgilarini solishtirib koʻrishda, bir-biriga qarama-qarshi qilib koʻrsatishda hamda fikrlarimizni, his-tuygʻularimizni taʼsirli, aniq-ravshan ifodalashga yordam beradi [2, 74].

“Gulshan ul-asror” [1] masnaviysida qayd etilgan antonimlardan asar mazmun mohiyatini taʼsirchan yoritishga erishishda unumli foydalanilgan. Masnaviyda keltirilgan antonimlarni quyidagi ikki guruhga ajratib tahlil qildik: 1. Leksik-semantik antonimlar. 2. Funksional-semantik antonimlar.

Masnaviyda leksik-semantik antonimlar sermahsul qoʻllangan: Masnaviyda leksikasidagi alohida qoʻllangan antonimlar sodda va murakkab koʻrinishlarga ega. Sodda antonimlar tub-leksik antonimlar va yasama-affiksial antonimlar shaklida uchraydi. a) sodda tub-leksik antonimlar. Leksema (semema)larning oʻzaro zid munosabatidagi maʼnolarni anglatishi asosida guruhlanishi leksik antonimiya deyiladi [5, 121]. Adib masnaviy suyujiyadagi zid mohiyatni yoritishda oʻzaro taqqoslash jarayonida antonimlardan unumli foydalangan: 1) zohir-botin; zohir(ar) – “koʻrinib turgan, ochiq oshkor” (NAL, 257); botin (ar) – “ich, ichki, yashirin, maxfiy” (OʻTIL, I, 328); 2) yōq-bor; yōq – “mavjud emas” (OʻTIL, II, 283); bor – “mavjud” (OʻTIL, I, 312); Zohirubotin xabari sözda dur, Özgadayōq, harneki borōzadur. (3A-6): 3) keng-tor; keng–“ichi, ich hachmi, sigʻimi, hajmi katta” (OʻTIL, II, 351); tor – “hajmi, sigʻimi katta emas” (OʻTIL, IV, 151); Közima keng dunyo bölib tangu tor, Rözi qiyomatni körib oshkor. (3B-8): 4) sud-ziyon; sud (f) – “foyda, daromat” (OʻTIL, III, 581); ziyon (f) – “zarar, yoʻqotish” (OʻTIL, II, 147); Bölmagin özdin ğanilarğa hasud, Özgaga soğinma ziyon, özğa sud! (11A-3): 5) boy-faqir; boy – “moldunyosi, davlati koʻp” (OʻTIL, I, 301); faqir (ar) – “kambagʻal, qashshoq, muhtoj” (OʻTIL, IV, 336); Boy dagulsen diraming bor esa, Faqir ğanidur karami bor esa. (14A-6): 6) Shoh-gado; shoh (f) – “podshoh” (OʻTIL, IV, 599); gado (f) – “kambagʻal, qashshoq” (OʻTIL, I, 473); Xush nimadur,

umrbaqosi qoni? Shohu gado birla vafosi qoni? (16A-7): 7) yigitlik-qarilik; yigitlik–“er jinsidagi shaxsning balogʻatdagi davri, balogʻatga yetgan davri” (OʻTIL, II, 267); qarilik–“organizm hayotining yoshga bogʻliq muayyan bir davri, umrning soʻngi davri: keksalik” (OʻTIL, V, 248); Körmakka xushtur bu yigitlik guli, Kelmasa söngra qariliq ğul-ğuli. (16A-10): 8) ato-ano; ato-ota; ato – “ota, padar” (NAL, 63); ano–“ona” (ANATIL, I, 101); Hamdamiyu hamnafasi bori ishq, Ham atosi, ham anosi, yori – ishq. (19A-1): 9) mömin-kuffor; mömin (ar) – “imom keltirgan” (NAL, 443); kuffor (ar) – “kofirlar” (NAL, 323); Ilmu amal bahsu jadaldin ketib, Möminu kuffor bila sulh etib. (19A-3): 10) gul-tikon; gul (f) – “chechak” (OʻTIL, I, 516); tikon–“oʻsimliklarning, shuningdek, baʼzi hayvonlarning ingichka uchli, ninasimon aʼzosi” (OʻTIL, IV, 88); Gul yuzini qilma tikon birla nesh, Kafsh kiyu qilma taboningni resh”. (19B-2): 11) daryo - qatra; daryo (f) – “katta oqar suv, daryo” (OʻTIL, I, 263); qatra (ar) – “tomchi, zarra; suyuqlikning zarralari tortishuvi natijasida sharcha shaklini olgan alohida kichik boʻlagi” (OʻTIL, V, 210) Faqrda hamxirqa Masiho bilan, Jamʼ qilib qatrani daryo bilan. (20A-4): 12) dōst- dushman; dōst (f) – “shafqatli oʻrtoq, yor, oshno, mahbub(a); qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin boʻlgan, inoqlik, ahillik bilan bogʻlangan ikki yoki undan ortiq kishining har biri” (OʻTIL, I, 678); dushman (f) – “yov, muxolif; dunyoqarashi, manfaatlari, xatti-harakati bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan, oʻzaro ğanim, raqib sifatidagi tomonlarning har biri” (OʻTIL, I, 671); Tōkti abukang ichagingning qonin, Dōst soğindingmu otang dushmanin? (20B-8): 13) yor-aĝyor; yor (f) – “sevgili, mashuq, mashuqa” (OʻTIL, II, 44); aĝyor (ar) – “begonalar, raqiblar” (OʻTEL, II, 58) Yorini sevgan netar aĝyorni, Yor ani istarki, tilar yorni! (22A-6): 14) toshqi-ichki; toshqi (t) – “tashqarida, tashqi tomonda joylashgan” (OʻTIL, IV, 25); ichki (t) – “ich qismida, ichkarida joylashgan” (OʻTIL, II, 251); Toshqi kōrar ichkini pur molu ganj, Ichki bilurkim, ne kōrar dardu ranj! (22B-3): 15) suĝro-kubro; suĝro (ar) – “eng kichik” (NAL, 578); kubro (ar) – “eng ulugʻ, eng katta” (NAL, 320) Olami suĝro senu kubro budur, Durri samin sen-senu daryo budur. (23A-5): 16) shom-subh; shom (f) – “kechqurun, qorongʻulik” (NAL, 670); subh (ar) – “tong payti” (NAL, 572); Shom nafas chekti-yu subh urdi dam, Hoshiya 23A-3: 17) horor-yaror; hor=–“ish, mehnat qilib toliqmoq, charchamoq” (OʻTIL, V, 552); yara=–“biron ishni bajarishga loyiq boʻlmoq, ishlatishga xizmat qila olmoq” (OʻTIL, V, 117) Ot semizi bir dabon oshqach horor, Eti yaroq bölsa, yurushqa yaror. (21A-7): 18) öt= - muqim; öt=–“bir nuqtadan boshqa bir nuqtaga harakatlanmoq” (OʻTEL, I, 491); muqim (ar) – “maʼlum makonda doimiy yashovchi” (OʻTEL, II, 305); Qaydaki yetsang öt-u böлма muqim, Kim, erur andin bori nozu naim. (23A-9): 19) saʼy - yiqil=; saʼy (ar) – “astoydil

harakat qilmoq” (O‘TEL, II, 380); yiqil=“qulamoq, ag‘darilmoq” (O‘TEL, I, 157); Keldiyu ul tomga yovushti ravon. Sa‘y hamon erdi, yiqilmoq hamon. (24A-9): 20) nihon-ayon; nihon (f)-“yashirin, berkitilgan” (NAL, 463); ayon (ar)-“ma‘lum, ravshan, aniq, ochiqm oydin” (NAL, 31); Qut ichinda nekim erdi nihon, Borchu bu qudrat bila böldi ayon. (2A-8): 21) egri-tög‘ri; egri-“qiyshiq, egilgan” (O‘TEL, I, 459); tög‘ri-“egri, qiyshiq joyi yo‘q” (O‘TEL, I, 376); 22) ozar-özar; oz=“to‘g‘ri yo‘ldan toymoq, adashmoq” (O‘TEL, III, 94); öz=“biror soha, ish, musobaqa va shu kabilarda boshqalardan oldinda bo‘lmoq, g‘olib kelmoq” (O‘TEL, V, 138); Egri ozar, tög‘ri özar, ey falon, Tuzluk et, Tengrini kör dar miyon! (10B-8): 23) keyin-ilgari; keyin-“avvalgisining ketidan, so‘ng, so‘ngra” (O‘TEL, II, 342); ilgari-“avval, oldinga” (O‘TEL, II, 189); Arratek et bazl keyin- ilgari, Tesha bikin yönma öz-özung sari! (10B-9): b) sodda yasama -leksik antonimlar:1) “be-“ perefiksi orqali hosil qilingan; joh-bejoh; joh (f)-“mansab, yuqori darajali o‘rin, amal, martaba” (NAL, 233); Bir nechaga berdi edi izzu joh, Bir nechani qildi g‘azabdin bejoh. (1A-12): 2) fe‘lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari orqali antonimlik hosil qilingan: a) bölg‘on- bölmag‘an; bölg‘on=“yuz bermoq, voqe bo‘lmoq” (O‘TEL, I, 412); Tilkitushar Tangri otidin yiroq. Bölg‘onidin bölmog‘ani yaxshiroq. (1A-6): b) ölsa - ölmas; öl=“hayotdan mahrum bo‘lmoq” (O‘TEL, I, 478); Xushtur eronlarğa karam davlati, Ölsa doği ölmas emish himmati. (12B-8): d) tilar- tilamas; tila=“biror istak, tilak, niyatni xohlamoq, istamoq” (O‘TEL, IV, 94); Yorini sevgan netar ag‘yorni, Yor ani istarki, tilar yorni! (22A-6); Ishqta yakröya kerak, mardi roh, Marhamu darmon tilamas dardxoh! (22A-7).

Konversiya hodisasini vujudga keltirishda xizmat qilgan zid ma‘noli birikmalar: 1) köz yumib-ochquncha -“juda qisqa muddatda, tezda” (O‘TFL, 253). Köz yumib-ochquncha kezib yer yuzi, Öz yeridin tebramağandek özi. (21A-11): 2) boshdin-oyoq-“to‘la-to‘kis, bus-butun” (O‘TFL, 108); Qaydogi andishalarim jösh urib, Böyimi

boshdin-ayoq oğush urib, (3B-2): 3) yaxshi-yomonkim-“insonlar”; Yaxshi-yomonkim ne kerak bir bil, Shayxdin ayruğini tazvir bil! 10B-11:

Birikmalarning zid ma‘noda qo‘llanishi murakkab ko‘rinishdagi antonimlarni yuzaga keltirgan: 1) mehribon-qasdi jon; Körguzur özin kishiga mehribon, Köz yumib ochquncha qilur qasdi jon. (20B-9): 2) jösh etib- xomush etib; Kuchlanib ul dam yuraki jösh etib, Zaxmati xush bölg‘ucha xomush etib (24B-4).

Funksional-semantik antonimlar. Asardagi antonimlarning ba‘zilari kontekstual xarakter kasb etgan. So‘zning ma‘no imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, fikr vahodisalar mohiyatini ta‘sirchan ifodalagan: 1) un-kepak; un-“donning upaga o‘xshash kukunga aylantirilgan holati” (O‘TEL, I, 390); kebak-“donning un qilinganda ajraladigan ustki qobig‘i” (O‘TEL, I, 203); 2) sirka-suv; sirka (f)-“sirka kislotasining suvdagi eritmasi” (O‘TEL, II, 27); suv-“vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikuvidan iborat tussiz shaffof suyuqlik” (O‘TEL, I, 301); Böhma ujuz olib, oğir sotquvchi, Unga kebak, sirkağa su qotg‘uvchi! (11A-5).

Adib Haydar Xorazmiy masnaviy leksikasining badiiy va tasviriy xususiyatlarini oshirish maqsadida antonimlardan unumli foydalangan. Bu esa, o‘z navbatida, zid ma‘noli so‘zlarning leksik birliklar mazmun-mohoyatini aniqlashdagi ahamiyati va ushbu hodisaning qadimiyligini ko‘rsatadi.

Maqolada qo‘llangan shartli qisqartmalar:

O‘TEL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati.- Toshkent. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

O‘TEL – Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent, 2000.

ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV jild. – Toshkent, 1983-1985.

NAL – Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. Porso Shamsiyev tahriri ostida.-Toshkent, 1972.

f – forsiy o‘zlashma

ar – arabiy o‘zlashma

ADABIYOTLAR

1. Haydar Xorazmiy. “Gulshan ul-asror” (Mahzan ul-asror) qo‘lyozmasi. O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37.
2. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
3. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
4. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

5. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
6. Усмонов С. Антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: 1958. №2.
7. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980.
8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент. 2002.

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida antonim leksemalar ifodasi

Tashmatova N.Ch.

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida ifodalangan antonim so‘zlar tasnif va tahlil etilgan. Masnaviyda leksik-semantik antonimlar semahsul qo‘llangan, funksional-semantik antonimlar esa kam miqdorda ifodalangan.

**Выражение антонимов лексем в произведении Хайдара Хоразми «Гульшан ул-асрар»
Ташматова Н.Ч.**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

В данной статье классифицируются и анализируются антонимы, выраженные в маснави «Гульшан ул-асрар» Хайдара Хорезми, одного из зрелых представителей нашей классической литературы, жившего в Хорезме в конце XIV-начале XV веков. В Маснави обильно употребляются лексико-семантические антонимы, а функционально-семантические антонимы выражены в небольшом количестве.

**The expression of antonyms of lexemas in Haydar Khorazmi's "Gulshan ul-asrar"
Tashmatova N.Ch.**

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

This article classifies and analyzes the antonyms expressed in the masnavi "Gulshan ul-asrar" by Haydar Khorezmi, one of the mature representatives of our classical literature, who lived in Khorezm in the late 14th - early 15th centuries. Lexical-semantic antonyms are abundantly used in the Masnavi, and functional-semantic antonyms are expressed in small quantities.